| EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH .....                                                                                                 | 1182 |
| Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li                                                                                                                                       |      |
| ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING<br>AND CIRCULAR ECONOMY .....                                                               | 1186 |
| Madraximova Shohista Bahrom qizi                                                                                                                                         |      |
| KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....                                                                                                 | 1191 |
| Mavkulov Ravshan Nematjonovich                                                                                                                                           |      |
| O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR<br>TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....                                                         | 1195 |
| Sultonov Baxtiyor Baxodirovich                                                                                                                                           |      |
| MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....                                                                                                            | 1201 |
| Duschanov Alisher Sherzod o'g'li                                                                                                                                         |      |
| QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING<br>IQTISODIY MEXANIZMI .....                                                                      | 1206 |
| Opaev Bysen Aymanovich                                                                                                                                                   |      |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI<br>MOLIYALASHTIRISH.....                                                                       | 1212 |
| Yuldashev Fozil Turapovich                                                                                                                                               |      |
| YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI<br>RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....                                                   | 1218 |
| M.M.Muminova                                                                                                                                                             |      |
| ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО<br>ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....                                                  | 1223 |
| Худаярова Мехрангиз Мурадовна                                                                                                                                            |      |
| TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING<br>NAZARIY ASOSLARI.....                                                                   | 1230 |
| Raxmatov Aziz Tolipovich                                                                                                                                                 |      |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT<br>SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH..... | 1235 |
| Smaylova Zarafshan                                                                                                                                                       |      |
| XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING<br>AHAMIYATI .....                                                                                 | 1239 |
| Abdunazarov Dilshoda Akromovna                                                                                                                                           |      |



|                                                                                                                  |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI .....      | 1244 |
| Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich                                                                                      |      |
| HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA .....                  | 1248 |
| Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li                                                |      |
| INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI .....                                                | 1258 |
| Ataniyazova M.B.                                                                                                 |      |
| OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI .....                                       | 1263 |
| Nishonov Dilshod Shamsidinovich                                                                                  |      |
| СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ..... | 1269 |
| Махмутходжаева Луиза Сайфулловна                                                                                 |      |
| IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI .....                                 | 1274 |
| Risqibekova Nozimaxon                                                                                            |      |
| THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES .....                                       | 1280 |
| Farrukh Mamadiyorov Shukhratovich                                                                                |      |
| MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI .....                                       | 1284 |
| Turdiyev Ulug'bek Qayumovich                                                                                     |      |



# MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI

**Turdiyev Ulug'bek Qayumovich**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Matematika kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0005-0965-040X

Email: [u.turdiyev.81@mail.ru](mailto:u.turdiyev.81@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda mintaq iqtisodiy barqarorligini baholashda qo'llaniladigan indikatorlar tizimi hamda uslubiy yondashuvlar nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional barqarorlikni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar guruhlar tizimlashtiriladi, ularni baholashda qo'llaniladigan statistik, indeksli, ekonometrik va makoniy tahlil usullarining afzalliklari hamda cheklovlari ochib beriladi. Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar asosida mintaqaviy barqarorlikni baholashning integrallashgan yondashuvlari umumlashtiriladi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy siyosatni ilmiy asosda rejalashtirishda hamda hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** mintaq iqtisodiyoti, iqtisodiy barqarorlik, barqarorlik indikatorlari, integrallashgan indeks, hududiy rivojlanish, statistik tahlil, ekonometrik modellash, mintaqaviy siyosat.

**Abstract.** This study provides a theoretical and methodological analysis of the system of indicators and methodological approaches used to assess regional economic sustainability. The research systematizes groups of indicators reflecting economic, social, environmental, and institutional sustainability and identifies the advantages and limitations of statistical, index-based, econometric, and spatial analysis methods applied in their evaluation. Based on a review of international and national academic literature, integrated approaches to assessing regional sustainability are summarized. The results of the study serve as a methodological foundation for evidence-based regional policy planning and for reducing interregional economic disparities.

**Key words:** regional economy, economic sustainability, sustainability indicators, integrated index, territorial development, statistical analysis, econometric modeling, regional policy.

**Аннотация.** В данном исследовании с теоретико-методологической точки зрения анализируется система индикаторов и методические подходы, применяемые при оценке экономической устойчивости региона. В работе систематизированы группы показателей, отражающие экономическую, социальную, экологическую и институциональную устойчивость, а также раскрыты преимущества и ограничения статистических, индексных, эконометрических и пространственных методов анализа, используемых при их оценке. На основе зарубежной и отечественной научной литературы обобщены интегрированные подходы к оценке региональной устойчивости. Результаты исследования могут служить методической основой для научно обоснованного планирования региональной политики и сокращения межрегиональных экономических диспропорций.

**Ключевые слова:** региональная экономика, экономическая устойчивость, индикаторы устойчивости, интегрированный индекс, территориальное развитие, статистический анализ, эконометрическое моделирование, региональная политика.

## KIRISH

Mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va uni aniq baholash masalasi bugungi kunda hududiy rivojlanish siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Barqarorlik tushunchasi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini, balki ijtimoiy barqarorlik, ekologik muvozanat hamda institutsional samaradorlikni ham qamrab oluvchi murakkab tizimli jarayon sifatida talqin etiladi. Shu sababli mintaq iqtisodiy barqarorligini baholashda yagona ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolish ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan yetarli emas. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar, resurslardan foydalanish samaradorligidagi farqlar va infratuzilma rivojlanishidagi nomutanosibliklar barqarorlikni baholashning zamonaviy uslublarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston sharoitida mintaq iqtisodiy barqarorligini kompleks indikatorlar asosida baholash hududiy siyosat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot mintaqa iqtisodiy barqarorligini baholash indikatorlari va uslublarini tizimli tahlil qilishga hamda ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini asoslashga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa iqtisodiy barqarorligini baholash masalalari xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ularning aksariyatida barqarorlik ko'p komponentli tizim sifatida talqin qilinadi. D. Meadows va hamkorlari barqarorlikni iqtisodiy o'sish chegaralari nuqtayi nazaridan baholab, resurslardan foydalanish intensivligi va uzoq muddatli muvozanat o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab bergan. Ushbu yondashuv barqarorlik indikatorlarini ekologik chekllovlar bilan integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi [1]. J. Stiglitz, A. Sen va J.-P. Fitoussi iqtisodiy barqarorlikni baholashda YalMga asoslangan yondashuvning cheklanganligini tanqid qilib, farovonlik, ijtimoiy tenglik va institutsional sifatni o'lchovchi indikatorlarni joriy etishni taklif etgan. Ularning konsepsiyasi barqarorlikni baholashda kompleks indikatorlar tizimining nazariy asosini yaratdi [2]. OECD ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan "Regional Well-being" va "Better Life Index" yondashuvlarida mintaqaviy barqarorligi iqtisodiy, ijtimoiy hamda institutsional ko'rsatkichlar uyg'unligi asosida baholanadi. Ushbu metodika hududlararo taqqoslash imkoniyatlarini kengaytiradi [3]. Jahon banki tadqiqotlarida mintaqaviy barqarorlikni baholashda iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan bir qatorda bandlik, investitsiyalar, infratuzilma va boshqaruv sifati indikatorlari muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berilgan. Bank yondashuvi siyosiy qarorlar qabul qilishda amaliy jihatdan keng qo'llaniladi [4].

Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida H. Richardson iqtisodiy barqarorlikni hududiy bandlik, investitsiya oqimlari va davlat aralashuvi bilan bog'liq holda tahlil qilgan. U iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun barqarorlik indikatorlari hududiy siyosat bilan uzviy bog'lanishi lozimligini ta'kidlaydi [5]. J. Vernon Henderson va J.-F. Thisse aglomeratsiya iqtisodiyoti doirasida barqarorlikni shaharlar va mintaqalar kesimida baholab, infratuzilma va makoniy omillarning barqaror rivojlanishga ta'sirini matematik modellar orqali asoslab bergan [6]. Mahalliy olimlardan Xodjayev N.X. mintaqaviy barqarorligini resurs salohiyati, ishlab chiqarish tuzilmasi va ijtimoiy ko'rsatkichlar asosida baholashni taklif etgan bo'lib, O'zbekiston hududlari kesimida kompleks tahlil o'tkazgan [7]. Raximov Sh.J. tadqiqotlarida mintaqaviy barqarorlikni baholash uchun integrallashgan indekslar ishlab chiqilib, investitsiya, demografiya va ekologik omillarning ta'siri ekonometrik modellar asosida tahlil qilingan [8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlar mintaqaviy barqarorligini baholashning nazariy asoslarini yoritgan bo'lsa-da, indikatorlar tizimini raqamli iqtisodiyot sharoitlari va zamonaviy xavf-xatarlar bilan integratsiyalash masalalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda umumilmiy va maxsus iqtisodiy metodlardan kompleks foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi. Empirik metodlar doirasida statistik tahlil, dinamik va strukturaviy tahlil, indeks usuli hamda hududlararo taqqoslash amalga oshirildi. Mintaqa iqtisodiy barqarorligini baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlardan iborat integrallashgan indikatorlar tizimi shakllantirildi. Shuningdek, barqarorlik omillarining ta'sirini aniqlashda regressiya tahlili va panel ma'lumotlar usullaridan foydalanildi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqa iqtisodiy barqarorligini empirik asosda baholash uni strategik boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, resurslardan oqilona foydalanish, hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlash imkonini beradi. Biroq bugungi kunda mintaqaviy barqarorlikni o'lchash bo'yicha umumiy tan olingan yagona indikatorlar tizimi yoki universal metodologiya mavjud emas. Shu sababli ko'plab tadqiqotlar ushbu muammoni kompleks yondashuvlar orqali hal etishga intilmoqda.

Mintaqa iqtisodiy barqarorligini baholash indikatorlari va uslublari bo'yicha mashhur xorijiy olimlar regionlar iqtisodiy tahlili, barqarorlikni baholash, indikatorlar tizimi va zamonaviy metodlarga asoslangan tadqiqotlar olib borgan. Robert J. Stimson, Roger R. Stough va Brian H. Roberts mintaqalarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi omillarni, jumladan ish bilan bandlik, investitsiya oqimlari, ijtimoiy infratuzilma, klasterlashuv va innovatsion salohiyatni tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlarida indikatorlar tizimi, AHP, input-output tahlil hamda regressiya modellari qo'llanilgan. Roberta Capello iqtisodiy o'sish, barqarorlik va raqobatbardoshlikni baholashda kompozit indekslar, shok tahlili, panel regressiya va strukturaviy o'zgaruvchilarni tahlil qiladi hamda mintaqaviy barqarorlikni baholash uchun PI (Performance Index) va RI (Resilience Index) modellarini taklif etadi.



Raj Nallari va Breda Griffith tadqiqotlarida mintaqalar bo'yicha iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikka ta'sir qiluvchi indikatorlar, xususan transport qulayligi, inson kapitali, tadbirkorlik muhiti hamda davlat siyosatining roli baholanadi. Ular GIS (geografik axborot tizimlari) asosida regional profiling usullaridan foydalanadi. Philip Cooke va Luciana Lazzeretti iqtisodiy shoklar hamda ijtimoiy-iqtisodiy stresslarga qarshi mintaqaviy moslashuvchanlikni tahlil qilib, Resilience Framework, sustainability indicators, social cohesion va path dependency kabi nazariyalar va indikatorlar asosida barqarorlikni baholaydi. Stuart A. Rosenfeld iqtisodiy barqarorlikni klaster rivojlanishi, kadrlar salohiyati, infratuzilma darajasi va innovatsion faollik bilan bog'liq holda tahlil qilib, SWOT, benchmarking, Delphi metodi hamda regional growth regression modellari orqali barqarorlik darajasini aniqlaydi. Andreas P. Papandreou esa mintaqalarning iqtisodiy barqarorligini baholash uchun multi-criteria decision analysis (MCDA), fuzzy logic va dynamic panel data models kabi ilg'or metodlarni taklif etadi. Ushbu yondashuvlarda barqarorlikni baholashda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy indikatorlar integratsiyasi asosiy yo'nalish sifatida qaraladi.

1-jadvalda keltirilgan metodologik sxema xorijiy olimlar (Stimson, Capello, Nallari, Cooke, Papandreou va boshqalar) tadqiqotlari asosida mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni baholash uchun zamonaviy indikatorlar va uslublarni birlashtiradi. Mazkur sxema kompleks indikator yondashuvi va empirik baholash metodlarini uyg'unlashtirgan bo'lib, ilmiy tadqiqotlar uchun mos hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni baholash: metodologik sxema<sup>1</sup>

| Bosqich                           | Element                                          | Mazmuni va asosiy manba             | Usul / Indikator                                                                                                                                                                                                               |
|-----------------------------------|--------------------------------------------------|-------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Diagnostika                    | Mintaqaning kontekstini tahlil qilish            | Stimson (2006); Capello (2016)      | SWOT, PESTLE, Regional Profile, GIS xaritalash                                                                                                                                                                                 |
| 2. Indikatorlar tanlovi           | Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'lchamlar       | Cooke (2017); Nallari (2011)        | Ishsizlik darajasi, YaIM o'sish sur'ati, atrof-muhit ifloslanish indeksi, ijtimoiy tengsizlik ko'rsatkichi                                                                                                                     |
| 3. Ma'lumotlarni normallashtirish | O'lchamlarning tenglashtirilishi                 | Capello (2016); Papandreou (2019)   | Min–Max, Z-score                                                                                                                                                                                                               |
| 4. Og'irliklar belgilash          | Indikatorlar ahamiyatini aniqlash                | Rosenfeld (2002); Papandreou (2019) | AHP (Analitik ierarxiya), Entropiya, Ekspert bahosi                                                                                                                                                                            |
| 5. Kompozit indeksni hisoblash    | Iqtisodiy barqarorlik indeksi (EBI)              | Capello (2016); Papandreou (2019)   | $EBI = \sum w_i \cdot S_i'$<br>Bu yerda:<br>• • $w_i$ – i-ko'rsatkich uchun og'irlik (vazn);<br>• • $S_i'$ – i-ko'rsatkichning normalizatsiyalangan qiymati;<br>• $\sum$ – barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yig'indini bildiradi |
| 6. Tahlil va interpretatsiya      | Mintaqalararo farqlar va xavflarni tahlil qilish | Stimson (2006); Capello (2016)      | Kartografik vizualizatsiya, Klaster tahlil, Gini koeffitsiyenti                                                                                                                                                                |
| 7. Empirik model                  | Barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash | Capello (2016); Papandreou (2019)   | Panel regressiya, GMM, PVAR, Resilience modeli                                                                                                                                                                                 |
| 8. Ssenariy tahlili               | Siyosat variantlari va barqarorlikka ta'siri     | Cooke (2017)                        | What-if tahlil, Dinamik ssenariylar                                                                                                                                                                                            |
| 9. Tavsiyalar                     | Strategik choralar va rivojlanish yo'nalishlari  | Nallari (2011); Rosenfeld (2002)    | DXS (PPP), Raqamli klasterlar, Mahalliy innovatsiyalar                                                                                                                                                                         |

Resilience yondashuvi (Cooke, Papandreou) barqarorlikni nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki moslashuvchanlik, shoklarga chidamlilik va tiklanish salohiyati orqali ham baholaydi. AHP usuli (Capello, Papandreou) murakkab ko'rsatkichlar o'rtasida ierarxik og'irliklarni aniqlash uchun qo'llaniladi. GIS xaritalash (Nallari) hududlar kesimida indikatorlarni vizual aks ettirish uchun zarur hisoblanadi.

Hududiy iqtisodiy barqarorlikning ko'p qirrali xususiyatga ega ekanligi sababli indikatorlar quyidagi asosiy bloklar bo'yicha guruhlanadi. Mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni baholash uchun taklif etilgan indikatorlar asosida har bir blok bo'yicha tizimli sharh taqdim etiladi. Har bir indikator bloki barqarorlikni belgilovchi asosiy omillar, potensial xavf-xatarlar va ilmiy izohlar bilan yoritiladi (2-jadval).

1 Muallif ishlanmasi

2-jadval. Iqtisodiy barqarorlik indikator bloklari<sup>2</sup>

| Blok                                 | Indikatorlar                                                              | Tahliliy izoh                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|--------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1. Makroiqtisodiy barqarorlik</b> | GRP o'sish sur'ati, inflyatsiya darajasi, byudjet balansining holati      | Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hududning umumiy iqtisodiy salohiyatini belgilaydi. GRP (Hududiy yalpi mahsulot) o'sishi – iqtisodiy faollik ko'rsatkichi; inflyatsiya – narxlar barqarorligini aks ettiradi; byudjet balansi esa davlat moliyasining sog'lomligini ko'rsatadi. Bu indikatorlar iqtisodiy barqarorlikning asosiy tayanchlaridir.   |
| <b>2. Ijtimoiy-iqtisodiy holat</b>   | Bandlik darajasi, ishsizlik ko'rsatkichi, aholi jon boshiga daromad       | Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda bandlik va aholi daromadlari muhim rol o'ynaydi. Yaxshi bandlik darajasi va yuqori daromadlar – aholining hayot sifatini ko'rsatadi. Ishsizlikning yuqoriligi esa ijtimoiy tanglik xavfini oshiradi.                                                                                                         |
| <b>3. Investitsion salohiyat</b>     | FDI hajmi, investitsion faollik indeksi, yangi korxonalar soni            | Investitsiyalar – mintaqaviy rivojlanishning drayveri. Tashqi (FDI) va ichki sarmoyalar iqtisodiy o'sishning katalizatoridir. Yangi korxonalar soni – tadbirkorlik muhitining jonlanishini bildiradi. Investitsion muhit zaif bo'lsa, barqarorlik xavf ostida qoladi.                                                                            |
| <b>4. Infratuzilma ta'minoti</b>     | Avtomobil yo'llari zichligi, internet qamrovi, energetika ta'minoti       | Zamonaviy infratuzilma iqtisodiy faollikni oshirish uchun zarur. Yo'l tarmog'i – logistika samaradorligini belgilaydi. Internet qamrovi – raqamli iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Energetika – sanoat va uy xo'jaliklari uchun asosiy manba. Bu ko'rsatkichlar past bo'lsa, iqtisodiy o'sishga to'siq bo'ladi.                         |
| <b>5. Ekologik holat</b>             | Atmosfera ifloslanishi darajasi, chiqindilar hajmi, yashil zonalar ulushi | Ekologik barqarorlik – uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismidir. Ifloslanish darajasi yuqori bo'lsa, sog'liq, turizm va yashash sifati salbiy ta'sir ko'radi. Yashil hududlarning mavjudligi ekologik muvozanatni qo'llab-quvvatlaydi.                                                                                          |
| <b>6. Innovatsion faollik</b>        | R&D xarajatlari, patentlar soni, texnoparklar soni                        | Innovatsion salohiyat – raqobatbardoshlikni oshiradi va yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. R&D (ilmiy tadqiqot) xarajatlari – texnologik rivojlanish darajasini bildiradi. Patentlar – yangi g'oyalar va mahsulotlarning ko'rsatkichi. Texnoparklar esa startaplar va ilm-fan integratsiyasi uchun muhim maydondir. |

Har bir indikator bloki iqtisodiy barqarorlikning muayyan o'lchamini iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik yoki texnologik jihatdan aks ettiradi. Indikatorlar o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, masalan, investitsiya salohiyati infratuzilma va innovatsion rivojlanish darajasiga bog'liq, ekologik holat esa aholining sog'lig'i hamda mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir indikatorni normalizatsiya qilish va ularga og'irlik koeffitsiyentlarini belgilash orqali umumiy barqarorlik indeksi (EBI)ni shakllantirish mumkin. Shuningdek, indikatorlar majmuasi asosida klaster tahlil, PCA yoki regressiya modellarini qo'llash tavsiya etiladi.

Ko'p indikatorli tizimni yagona integral indeksga keltirishda turli metodologik yondashuvlardan foydalaniladi. Mintaqa iqtisodiy barqarorligini empirik asosda baholash strategik boshqaruv jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bugungi kunda mintaqaviy barqarorlikni o'lchash bo'yicha umumiy tan olingan yagona indikatorlar tizimi yoki universal metodologiya mavjud emas. Shu bois ko'plab ilmiy tadqiqotlar ushbu muammoni kompleks yondashuvlar asosida hal etishga intilmoqda.

Min–Max normalizatsiya formulasi:

$S'_i = (S_i - S_{min}) / (S_{max} - S_{min})$  Z-score standartlash formulasi:

$Z_i = (S_i - \mu) / \sigma$

Kompozit indeks formulasi:

$I_{stab} = \sum (w_i * S'_i)$

Panel regressiya modeli:

$Stability\_it = \alpha + \beta_1 X1\_it + \beta_2 X2\_it + \dots + \varepsilon\_it$

Bu erda  $S_i$  i-chi kuzatuv uchun asl qiymat (indikator),  $S_{min}$ – Tanlangan indikatorning minimal qiymati (eng past holat),  $S_{max}$ – Tanlangan indikatorning maksimal qiymati (eng yuqori holat) va  $S'_i$ – Normallashtirilgan qiymat (0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda)

Ushbu formulada ma'lumotlar [0; 1] oraliqqa transformatsiya qilinadi. Bu kompozit indeks tuzishda yoki ko'p indikatorli baholash tizimida muhim bo'ladi, chunki indikatorlar turli birliklarda bo'ladi (masalan: foiz, so'm, metr).

Z-score (standartlashtirish) formulasi

$Z_i = S_i - \mu / \sigma$



Si i-chi qiymat (indikator),  $\mu$  Tanlangan indikatorning o'rtacha (mean) qiymati,  $\sigma$  Tanlangan indikatorning standart og'ish (standard deviation), Zi Standardlashtirilgan qiymat (o'rtacha qiymatdan necha  $\sigma$  uzoqlikda)

Bu metod normal taqsimot asosida baholashni amalga oshiradi. Agar  $Z_i > 0$ , demak qiymat o'rtachadan yuqori. Bu metod anomalialarni aniqlash, sifat nazorati va klaster tahlilida keng qo'llaniladi.

Kompozit indeks formulasi

$$I_{stab} = \sum_{i=1}^n w_i I_i$$

Bu erda  $I_{stab}$ , Barqarorlikning integral (kompozit) indeksi,  $w_i$  i-chi indikator uchun og'irlik (muvozanat koeffitsiyenti), Si i-chi indikatorning normallashtirilgan qiymati va N Indikatorlar soni

Har bir indikator muayyan og'irlik asosida baholanadi va yakuniy indeksga hissa qo'shadi. Og'irliklar ekspert baholash (AHP, Entropiya), statistik yondashuv yoki regressiya koeffitsiyentlari asosida aniqlanishi mumkin. Natijada barqarorlik yoki rivojlanish darajasini kompleks ko'rsatkich bilan ifodalash mumkin.

4. Panel regressiya modeli

$$Stability_{it} = \alpha + \beta_1 X_{1,it} + \beta_2 X_{2,it} + \dots + \epsilon_{it}$$

$Stability_{it}$  i-hududning t-momentdagi iqtisodiy barqarorlik darajasi (kompozit indeks yoki real indikator),  $\alpha$  Erkin had (konstant qiymat),  $\beta_1, \beta_2, \dots$  Mustaqil o'zgaruvchilarning (indikatorlar) ta'sir koeffitsiyentlari,  $X_{1,it}, X_{2,it}, \dots$  Barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillar (masalan: investitsiyalar, infratuzilma, bandlik, R&D,  $\epsilon_{it}$  Tasodifiy xatolik (individual va vaqtga bog'liq shovqinlar).

Bu model orqali iqtisodiy barqarorlikka qaysi omillar, qanday darajada, ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlash mumkin. Panel model — vaqt (t) va hudud (i) bo'yicha ikki o'lchamli tahlilni amalga oshirishga imkon beradi. U quyidagi variantlarda qo'llaniladi. Pooled OLS, Fixed Effects (FE), Random Effects (RE) Modelni tahlil qilish uchun statistik dasturlar — EViews, STATA, R, SPSS kabi vositalar qo'llaniladi.

Iqtisodiy barqarorlikni YalM (GDP), ekologik indeks, bandlik va eksport ko'rsatkichlari o'zgarish tendensiyasi asosida baholaymiz (3-jadval).

3-jadval. O'sish sur'atlari (yillik o'zgarishlar) <sup>3</sup>

| Yil | GDP   | Ekologik indeks | Bandlik | Eksport |
|-----|-------|-----------------|---------|---------|
| t+1 | +0.60 | +0.40           | +0.30   | +0.50   |
| t+2 | +0.45 | +0.50           | +0.25   | +0.40   |
| t+3 | +0.20 | +0.35           | +0.10   | +0.25   |

YalM tez o'sadi, biroq uning ta'siri qisqa muddatda so'nadi. Ekologik indeks esa nisbatan barqaror bo'lib, uzoq muddatli va davomli ta'sir ko'rsatadi. Bandlik dastlab kuchli boshlanishi bilan ajralib turadi, ammo keyingi davrlarda tez pasayish kuzatiladi. Eksport ko'rsatkichlari o'rta muddatda eng yuqori foyda beruvchi indikator sifatida namoyon bo'ladi.

YalM o'sishida t+1 davrida +0.60 ko'rsatkichi qayd etilib, yuqori o'sish kuzatilgan. t+2 davrida bu ko'rsatkich +0.45 gacha pasayib, o'sish sur'atlarining sekinlashuvi boshlangan. t+3 davrida esa +0.20 darajasigacha keskin pasayish qayd etilgan. YalM o'sish sur'atining yil sayin kamayishi iqtisodiy o'sishning sekinlashayotganidan dalolat beradi. Ushbu holat investitsion faollikning pasayishi yoki global iqtisodiy muhitning salbiy ta'siri bilan izohlanishi mumkin.

Ekologik indeks t+1 va t+2 davrlari oralig'ida +0.40 dan +0.50 gacha o'sib, ijobiy dinamikani namoyon etgan. t+3 davrida esa +0.35 darajasiga tushib, biroz pasayish kuzatilgan. Umuman olganda, ekologik holat yaxshilangan, biroq t+3 davrda o'sish sur'atining sustlashuvi sanoat faolligining ortishi yoki ekologik investitsiyalarning qisqarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bandlik ko'rsatkichida t+1 davridan t+3 davrigacha +0.30 dan +0.25 va +0.10 gacha barqaror pasayish kuzatiladi. Bu ish o'rinlari yaratish sur'atining kamayib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur jarayon iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi hamda texnologik avtomatlashtirishning kuchayishi bilan izohlanishi mumkin.

Eksport ko'rsatkichlarida ham t+1 davridan t+3 davrigacha +0.50 dan +0.40 va +0.25 gacha pasayish qayd etiladi. Eksport hajmi o'sishining sekinlashuvi global bozorlar bilan bog'liq risklar, logistika muammolari yoki xalqaro raqobatning kuchayishi bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas (4-jadval).

3 Muallif ishlanmasi

4-jadval. O'zaro bog'liqlik (Korrelatsion kuzatuv) <sup>4</sup>

| O'zgaruvchilar        | Ehtimoliy bog'liqlik                                                |
|-----------------------|---------------------------------------------------------------------|
| GDP ↔ Bandlik         | O'sish bilan birga bandlik ortgan, lekin asta-sekin kamaymoqda.     |
| GDP ↔ Eksport         | Ikkalasi ham t+1 dan t+3 gacha pasaygan.                            |
| GDP ↔ Ekologik indeks | GDP pasaygan, ammo ekologik indeks t+2 da oshgan – ziddiyat mavjud. |
| Eksport ↔ Bandlik     | Ikkalasi ham o'sish sur'atida pasaygan.                             |

YaIM, bandlik va eksport ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, ularning dinamikasi iqtisodiy faollik darajasini aks ettiradi. Shu bilan birga, ekologik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi alohida ekologik siyosat yoki maqsadli tashabbuslar natijasi bo'lishi ehtimoli mavjud. Iqtisodiy o'sish (YaIM) va bandlik sur'atlarining ketma-ket pasayishi iqtisodiy faollikning sustlashayotganidan dalolat beradi. Eksport hajmining kamayishi esa tashqi savdo imkoniyatlarining qisqarayotganini ko'rsatadi. Ekologik indeks nisbatan barqaror va ijobiy o'sish dinamikasiga ega bo'lsa-da, mazkur holat ayrim hollarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi hisobiga yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari mintaq iqtisodiy barqarorligini baholash ko'p omilli va kompleks yondashuvni talab etishini ko'rsatdi. Barqarorlikni faqat iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari asosida baholash yetarli emasligi, balki ijtimoiy, ekologik va institutsional indikatorlarni ham qamrab oluvchi integrallashgan tizim zarurligi aniqlandi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili indeksli va ekonometrik usullar mintaq iqtisodiy barqarorligini baholashda eng samarali yondashuvlar hisoblanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya va ekologik xavf-xatarlarni hisobga oluvchi yangi indikatorlar tizimini ishlab chiqish kelgusidagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari mintaqaviy siyosatni takomillashtirish, hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Meadows D.H. et al. *The Limits to Growth*. – New York: Universe Books, 1972.
2. Stiglitz J.E., Sen A., Fitoussi J.-P. *Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress*. – Paris, 2009.
3. OECD. *Regional Well-being: A Framework for Measuring Well-being at the Regional Level*. – Paris: OECD Publishing, 2014.
4. World Bank. *World Development Report*. – Washington, DC: World Bank, 2018.
5. Richardson H.W. *Regional Economics*. – London: Weidenfeld and Nicolson, 1978.
6. Henderson J.V., Thisse J.-F. *Cities and Geography*. – Princeton: Princeton University Press, 2004.
7. Xodjayev N.X. *Mintaqaviy iqtisodiyot va barqaror rivojlanish*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016.
8. Raximov Sh.J. *Mintaqaviy barqarorlik indekslarini baholash metodologiyasi*. – Toshkent: Fan, 2021.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>